

УДК: 930.85

Кориев Абдумалик Убайдуллаевич

*Преподаватель Наманганского областного центра переподготовки и
повышения квалификации работников народного образования*

**УВЕЛИЧЕНИЕ МЕСТА И ЗНАЧЕНИЯ ИСТОРИЧЕСКИХ
ПАМЯТНИКОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В КОНЦЕ XIX И НАЧАЛЕ
XX ВЕКОВ**

Аннотация: В статье раскрывается историческое значение архитектурных памятников и современных зданий в городах Центральной Азии в конце XIX - начале XX веков.

Ключевые слова: мечеть, медресе, памятник архитектуры, архитектура, традиционный стиль, современный европейский стиль.

Qoriyev Abdumalik Ubaydullayevich

*Lecturer, Namangan Regional Center for Retraining and In-Service Training
of Public Education Employees*

**INCREASING THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF CENTRAL
ASIAN HISTORICAL MONUMENTS IN THE LATE XIX AND EARLY
XX CENTURIES**

Annotation: This article provides insights into the historical significance of architectural monuments and modern buildings in Central Asian cities in the late 19th and early 20th centuries.

Keywords: mosque, madrasa, architectural monument, architecture, traditional style, modern European style

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan oʻzgarishlar tufayli tarixiy-madaniy merosni muhofaza qilish, arxitektura yodgorliklarini qayta tiklash, tarixiy obidalarni taʼmirlash ishlari davlat siyosati darajasida amalga oshirib kelinmoqda. Hududlarni turistik salohiyatini kuchaytirish, buning uchun tarixiy qadamjoylarni dunyo hamjamiyatiga maʼlum qilish

zarurati yanada dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu haqida Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida **"Yurtimizda 8 ming 200 dan ziyod madaniy meros ob'yekti mavjud bo'lib, turizm marshrutlariga ularning atigi 500 tasi kiritilgan. Ziyorat va an'anaviy turizmni rivojlantirish mumkin bo'lgan marshrutlardagi ob'yektlar sonini 800 taga yetkazish bo'yicha choralar ko'rishimiz kerak. UNESCOning Umumjahon moddiy madaniy merosi va nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga O'zbekistondagi yangi ob'yektlarni kiritishni tezlashtirish lozim"**[1] degan fikrni ta'kidlab o'tilganligi ham buning isboti.

Prezident tomonidan ilgari surilgan yangi obyektlar safiga XIX asr oxir XX asr boshlarida O'rta Osiyoda bunyod etilgan tarixiy me'moriy obidalarni ham qo'shish mumkin. Rus mustamlakachiligi davridagi me'morchilikni anglash va undan bohabar bo'lish zarur omillardan bo'lib, u O'zbekistonning zamonaviy shaharlarini tarixiy qiyofasida chuqur iz qoldirgan. Ayniqsa, Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Namangan, Andijon kabi shaharlarda ushbu davrda qurilgan, hozirgacha foydalanib kelinayotgan bir qator inshootlar muhim tarixiy ahamiyatga ega yodgorliklar sirasiga kiradi.

XIX asr oxirlarida Chor mustamlakachiligi tomonidan O'rta Osiyoda mustamlaka tartibi o'rnatilgach, me'morchilik sohasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ibodat inshootlari bo'lgan masjidlar, madrasalar, maqbaralar hamda karvonsaroylar qurilishi kamayib, hatto ayrim shaharlarda to'xtab qoldi. Xonliklar davrida hukmdorlar ruhoniylar mehrini qozonish va ularning qo'llab-quvvatlashiga erishish hamda o'zlaridan xotira qoldirish uchun ulug'vor maqbaralar, madrasa va honaqolar hamda jome masjidleri qurishgan bo'lsa, endi bunday ishlarga juda kam mablag' sarflana boshladi. Lekin, arxitekturaviy loyihalar to'xtab qolgani yo'q. Ayniqsa, Turkiston general-gubernatorligi hududida me'morchilikda an'anaviy uslublardagi binolardan ko'ra, muayyan vazifani bajarishga hizmat qiladigan imoratlar - ma'muriy boshqaruv idoralari, maktablar, saroy va boshqa binolar qurilishi avj oldi. Turkiston hududidagi

shaharlarda arxitektura o'ziga xos uslubda rivojlandi. Qadimiy tarixga ega shaharlarning rivojlanishi va yangilarining barpo etilishi muayyan me'moriy tartibni qaror toptirishni talab etardi. XIX asr oxiridan har bir shaharda shahar bosh me'mori(arxitektori) lavozimi tayinlandi, u me'moriy me'yorlarning bajarilishini kuzatib, ularni boshqarib borishi lozim edi. Bu davrda shahar qurilishining metall va betonni joriy etishga asoslangan, davr ruhiga mos yangi shakldagi zamonaviy me'moriy binolar qurilishi rivojlandi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida O'rta Osiyoda qurilgan me'moriy inshootlar 2 turga bo'linadi: birinchisi, an'anaviy uslubdagi me'moriy obidalar; ikkinchisi, zamonaviy yevropacha uslubdagi binolar.

Ushbu davrda O'rta Osiyo shaharlarida an'anaviy uslubda bunyod etilgan binolar kam qurilgan bo'lsada, lekin mustahkam va pishiq qilib bunyod etilgan. Ulardan ko'pchiligi uzoq vaqt yaxshi saqlandi va aholiga hizmat qilib keldi. Hatto ayrimlari bugungi kunda ham foydalanilmoqda. An'anaviy uslubdagi obidalarni bunyod etishda Farg'ona vodiysi shaharlari yetakchilik qilgan. Hususan, Andijondagi uzunligi deyarli 123 metrga teng bo'lgan "Jome'" masjid, Namangandagi Mulla Qirg'iz madrasasi, Atoullixon(Ota Valixon) to'ra masjidi, Sirli masjid, Farg'onadagi "Jome'" masjidlar ana shunday uslubda bunyod etilgan va hozirgacha foydalanib kelinayotgan me'moriy yodgorliklar sirasiga kiradi.

Zamonaviy yevropacha uslubdagi me'moriy inshootlar barcha shaharlarda ma'muriy tartiblarni amalga oshirish uchun bunyod etilgan, lekin hozirgi kungacha yaxshi saqlanganlarini asosan Toshkent va Farg'ona shaharlarida uchratish mumkin. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Toshkent shahrining "yangi" qismida qurilgan eng mashhur binolardan o'sha davrdagi Davlat banki, ayollar gimnaziyasi (hozirgi Toshkent davlat yuridik instituti), Toshkent erkaklar gimnaziyasi, Kadetlar korpusi (hozirgi I Toshkent tibbiyot akademiyasi hududi), Knyaz Nikolay Konstantinovich saroyi (hozirgi Tashqi ishlar

vazirligining qabulxonasi), Real bilim yurti, Kaplan dorixonasi, Toshkent shimoliy vokzali, Turkiston davlat palatasi va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin[2].

Fargʻonadagi Markaziy park yaqinidagi bir qancha binolar Rossiya podsholigi koʻrinishiga oʻxshaydi. Ular XIX asr oxirida qurilgan boʻlib, ularning meʼmorchiligi mukammal darajada saqlanib qolgan. Ular orasida rus drama teatri (ilgari harbiy gubernator binosi boʻlgan), Fargʻona davlat universiteti (ilgari erkaklar uchun gimnaziya vazifasini bajargan), “Ofitserlar uyi” va Avliyo Sergiy Rodonejskiyning ibodatxonasi bor[3].

Ushbu roʻyhatni boshqa shaharlar va tumanlardagi koʻplab meʼmorchilik durdonalari bilan toʻldirib borish mumkin. Biroq, ularni asrab-avaylash va taʼmirlashga eʼtibor qaratilmasa sanab chiqish behuda ketadi. Misol uchun, Fargʻona vodiysidagi tarixiy obidalar bir necha yillardan beri davlat va jamoatchilik eʼtiboridan chetda qolib keldi. Buning boisi, birinchidan Fargʻona meʼmoriy yodgorliklari Oʻrta Osiyoning Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent kabi shaharlaridagi mashhur obidalar singari unchalik serhasham emas, ikkinchidan Fargʻona vodiysidagi tarixiy obidalar hozircha kam oʻrganilgan, ularni faqat mahalliy aholi-yu, mutahassis olimlarning tor doirasidagilari biladi xolos, uchinchidan Fargʻona vodiysida ziyorat turizmidan koʻra tibbiyot turizmi rivojlangan, ziyorat turizmiga asosan qadimiy davrlarga oid yodgorliklar qamrab olingan. Shu kabi sabablarga koʻra, XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi tarixiy obidalar keng ommalashmagan.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun avvalo ushbu davrga oid meʼmoriy obidalarni oʻrganish boʻyicha ilmiy tadqiqotlarni koʻpaytirish va aniq dalillarga asoslangan tarixiy maʼlumotlarni keng jamoatchilik orasida targʻibot qilish kerak. Bunga tarixchilar, turizm va madaniyat maskanlari mutahassislari, tashabbuskor yoshlar hamda boshqa mustaqil tadqiqotchilarni jalb etish, davlat va nodavlat tashkilotlarni homiylik mablagʻlari hisobidan fundamental loyihalar tayyorlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- [1] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. -T.: O'zbekiston, 2021. – B. 174
- [2] Исмоилова Ж. XIX асрнинг иккинчи ярми — XX аср бошларида Тошкентнинг “янги шаҳар” қисми тарихи: Тошкент: Fan va texnologiya, 2004. Тошкент меъморий ёдгорликлари тарихидан | Shosh.uz
- [3] <https://uzbekistan.travel/uz/o/jannat-burchagi-fargona/>